

60710600-Elektr energetikasi (elektr ta'minoti) bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60710600 – Elektr energetikasi (elektr ta'minoti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining ta'lim shakllariga ko'ra o'qishni me'yoriy muddatlari kunduzgi ta'limda 4 yil.

60710600 – Elektr energetikasi (elektr ta'minoti)- “Muxandislik ishi” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish va ulardan foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlari;
- elektr energiya iste'molchilari;
- elektr ta'minoti tizimida ishlatiladigan jihozlar va ularning konstruksiyalari;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; kasb-hunar kollejlardagi o'quv-tarbiya jarayoni.